**D.Yo‘ldoshev, A.Abdirashidov,**
**A.Murodov, Ch.Tursunov**

# ZAMONAVIY LOGISTIK TEXNOLOGIYALAR

Термиз – 2025

**Zamonaviy logistik texnologiyalar. Usubiy ko‘rsatma. Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalari universireti, T.: 2024, 41 bet .**

**Annotatsiya**

Ushbu uslubiy ko‘rsatma ma’ruza davomida olingan bilimlarni mustahkamlashga, fan va umumiy ta’lim usullarini (ko‘nikmalarini) ishlab chiqish va tizimlashtirishga, shuningdek, zamonaviy logistik texnologiyalariga oid yangi ma’lumotlarni izlash va qayta ishlash usullariga qaratilgan.

**Tuzuvchi:**

D. Yo‘ldoshev Toshkent davlat transport universiteti - Transport logistikasi dotsent v.b

A. Abdirashidov Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalari universiteti “Transport muhandisligi va logistikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi (PhD)

A.Murodov Toshkent davlat transport universiteti Transport logistikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi

Ch.Tursunov Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalari universiteti “Transport muhandisligi va logistikasi” kafedrasi assistenti

**Taqrizchilar:**

Choriyev Xoliqul Shoyqulovich Toshkent davlat transport universiteti Transport logistikasi kafedrasi dotsenti

Yugayev Shavkat Mansunovich Termiz davlat muhandisligi va agrotexnologiyalar universiteti Transport muhandisligi va logistikasi kafedrasi. Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

***Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalari universiteti Ilmiy-uslubiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan. Bayonnoma №5/ I-3, 2024-yil 3-noyabr.***

# KIRISH

Yangi ilmiy va o‘quv “Zamonaviy logistik texnologiyalar” fanining o‘rganish ob’ekti moddiy va ular bilan bog‘liq bo‘lgan axborot oqimlari hisoblanadi. Fanning dolzarbligi va uni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishning keskin ortishi logistik yondashuvdan foydalanish orqali moddiy tizimlar faoliyati samaradorligini oshirishning potentsial imkoniyatlari bilan bog‘liqdir. Logistika xomashyo va yarim tayyor mahsulotlar olib kelish bilan iste’molchiga tayyor mahsulot yetkazib berish o‘rtasidagi vaqt oralig‘ini keskin qisqartirish imkonini beradi. Yuklarni saqlash va tashish xarajatlarini keskin qisqartirishga imkoniyat yaratadi. Logistikaning qo‘llanishi ma’lumot olish jarayonini tezlashtiradi, servis xizmati darajasini oshiradi.

Logistika sohasidagi faoliyat ko‘p qirralidir. U transport, ombor xo‘jaligi, zahiralar, xodimlar boshqaruvi, axborot tizimlari, tijorat faoliyati va boshqalarni tashkil etishni qamrab oladi. Sanalgan vazifalarning har biri tegishli soha fanida chuqur o‘rganilgan va bayon etilgan. Logistik yondashuvning yangiligi yuqorida sanalgan faoliyat sohalarining maromli tashkil etilgan yengil boshqaruvini va yuqori samarali material o‘tkazuvchi tizimlarni yaratish uzviy bog‘liqligini ta’minlash hisoblanadi

Amaliy mashg‘ulotlar kafedra amaliy mashg‘ulot xonalarida hamda zamonaviy logistika markazlarida o‘tkaziladi.

Bu esa, talabalardan amaliy mashg‘ulot ishlariga mustaqil ravishda puxta tayyorgarlik ko‘rishlarini taqozo qiladi, yani nazariy materiallarni takrorlash, amaliy mashg‘ulot ishi mazmunini o‘rganib, hisobot daftariga kerakli ma’lumotlarni kiritish va texnologik sxemalarni chizishlarini talab etadi.

## 1-Amaliy mashg‘ulot.

**Mavzu:** Logistik texnologiya tushunchasi, mazmuni va mohiyati. Logistik texnologiyalar: zamonaviy muammolari va rivojlanish darajasi

**Ishdan maqsad:** Lagistik texnologiyalar haqida dastlabki tushunchalar va uning rivojlanish bosqichlari bilan tanishish.

### Blis-so‘rov savollari

1. “Zamonaviy logistika” ta’rifi va uning lug‘aviy ma’nosi
2. Zamonaviy logistikaning predmeti va ob’ekti nima?
3. Zamonaviy logistikaning rivojlanish bosqichlarini
4. Zamonaviy logistikaning funksional sohalarini
5. Zamonaviy logistikaning asosiy maqsadi nima?

**1.1-ilova**

**Suhbat o‘tkazishning asosiy qoidasi**

So‘zlayotgan shaxsning fikrini diqqat bilan eshiting.
Suhbatdoshning qiziqishlarini ham hisobga oling.
Suhbatlashayotganda so'zlashuv odobiga rioya qiling.
Xar bir jumlani sizni tinglayotganlarga to‘liq yetkazishga xarakat qilish

### Mavzu bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumotlar

1.1-jadval

Zamonaviy logistika vositalari

<table>
<tr><td colspan="3">Logistikaning tarixiy rivojlanishida quyidagi logistik texnalogiyalar jadal rivojlanishga erishgan:</td></tr>
<tr><td>N</td><td>texnalogiyalar</td><td>Vazifalar va xizmatlar (ma`no)</td></tr>
<tr><td>1</td><td>2</td><td>3</td></tr>
<tr><td>1</td><td>- RP–</td><td>Requirements/resource planning (resuruslarni/talabni rejalashtirish);</td></tr>
<tr><td>2</td><td>- JIT–</td><td>Just-in-time (“ayni vaqtida”);</td></tr>
<tr><td>3</td><td>- LP –</td><td>Lean Production (“tejamkor ishlab chiqarish”).</td></tr>
<tr><td colspan="3">Undan tashqari oxirgi paytlarda paydo bo‘lgan lagistik kansepsiya/texnalogiyalar sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkuin:</td></tr>
<tr><td>4</td><td>- DDT –</td><td>Demand-driven techniques (talabga mo‘ljallangan lagistika);</td></tr>
</table>

| | | |
|---|---|---|
| 5 | - SCM - | Supply chain management (yetkazib berish zanjirini boshqarish); |
| 6 | - Time-based logistics | (aniq vaqt ko‘lamidagi lagistika); |
| 7 | Value added logistics | (qo‘shimcha qiymatli lagistika); |
| 8 | - Virtual logistics | (vertual lagistika); |
| 9 | - E-logistics | (elektron lagistika) |

Yuqorida keltirilgan xar bir tashish tilining texnalogiyasi tashkil etishi va boshqarilishi ma`lum xususiyatlarga ega ammo xar bir turda yuk tashish ma`lum darajada umumiy texnalogik sxemalari mavjud(1-rasm).




1-rasm Yuk tashishning texnalogik sxemalariga misollar:
a-bitta transport turida, b- bir necha transport turida




2-rasm. Yuklarni yetqazib berishdatransport-texnalogik jarayonlarini asosiy bosqichlari

**1-bosqich –** maxsulotni transpotrda tashish uchun tayyorlash. Bu bosqich maxsulot ishlab chiqarilgandan uni kontenyerga yoki transport vositasiga joylashtrilgunga qadar davom etadi. Maxsulotni transportda tashish uchun tayyorlash-yuklarni taralashtirish ularni paketlashtirish tekis tagliklariga yoki kontenyerlariga jiylashtirishdan iborat bo'lishi mumkin. Birinchi bosqichdagi xarajatlar maskur ishlarni bajarish uchun talab etiladigan eksplutatsion xarajatlar yoki yordamchi vositalar (taglik, paket, kontenyer) ni xarid qilish uchun lozim bolgan kapital xarajatlardan iborat bo'lishi mumkin.

**2-bosqich-**yuklarni magistal transport terminaliga tashib berishdan iborat.

**3-bosqich-**yuklarni magistral transport vositasiga ortish va bunda tegishli omborxona-transport ishlarini bajarish.transport vositalariga yuklarni ortish xarajatlarini aniqlash uchun bu yumushlarni bajarish usuli va qo'llanilayotgan ortish mexanizimlarining texnik eksplutatsion ko'rsatkichlarini bilish zarur.

**4-bosqich-** yuklarni magistral transport turida tashish.Tashish xarajatlari qo'llanilayotgan transport turi tashish masofasi va texnalogiyasiga bog`liq ravishda aniqlanadi.

**5-bosqich –**yuklarni magistral transportda tushirib olishda bajariladigan transport- omborxona ishlaridan iborat.

**6-bosqich –** yuklarni magistral transport terminalidan tashib chiqish va ularni ulgurji taminot- sotuv bazalariga ya`ni taqsimlovchi markaziy omborxonalariga joylashtrish.

**7-bosqich –**yuklarni taminot sotuv bazalaridan istemolchiga yetqazish.

**1.2-ilova**

**“Insert usuli”**

**Insert -** samarali yuklarni o‘qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o‘qib-o‘rganishda yordam beradi. Bunda ma’ruza mavzulari, kitob va boshqa materiallar oldindan talabaga vazifa qilib beriladi. Uni o‘qib chiqib, "V; +; -; ?" belgilari orqali o‘z fikrini ifodalaydi.

**Matnni belgilash tizimi**

(v) - men bilgan narsani tasdiqlaydi.
(+) - yangi ma’lumot.
(-) - men bilgan narsaga zid.
(?) - meni o‘ylantirdi. Bu borada menga qo‘shimcha ma’lumot zarur.

**Insert jadvali**

1.2 - jadval

| **Tushunchalar** | **V** | **+** | **-** | **?** |
|---|---|---|---|---|
| Zamonaviy Logistika elementlari | | | | |
| Lagistik texnalogiyalarining Ishlab chiqarishdagi o‘rni | | | | |
| Zamonaviy texnalogiyalarini qo‘llash | | | | |
| Zahira | | | | |
| Yuklarni yetqazib berishda | | | | |
| Transpotr-texnalogik jarayon | | | | |
| Lagistik texnalogiyalarining rivojlanishi | | | | |

## “T - sxema” ni to‘ldirish

1.3- jadval

| **Korxona faoliyatida zamonaviy logistik texnalogiyalarini qo‘llash** | |
|---|---|
| Afzalliklari | Kamchiliklari |
| | |
| **Homashyo-ishlab chiqarish-saqlash-taqsimlash va ta’minlashda zamonaviy texnalogiyalar** | |
| Afzalliklari | Kamchiliklari |
| | |

## 1-amaliy mashg‘ulot 2- qism

**Mavzu:**Lagistik texnalogiyalar zamonaviy muammolari va rivojlanish darajasi.

**Ishdan maqsad:** O‘zbekiston Respublikasida zamonaviy logistikaning dolzarbligi uni yanada rivojlantirish va xalqaro darajalariga integratsiyalshish masalalarini o‘rganish.

### Blits–so‘rov savollari

1. Zamonaviy logistikaning funksiyasi nima?
2. Hozirgi zamonda yetqazib berish tizimida zamnaviy logistikaning tutgan o‘rnini izohlab bering.
3. Bozor munosabatlarining rivojlanishiga zamonaviy logistikaning ta’siri qanday?
4. O‘zbekiston iqtisodiyotining bozor munosobatlariga o‘tish sharoitida zamonviy logistikaning tutgan o‘rnini aniqlovchi omillar nimalardan iborat?

**1.2-ilova**

**Suhbat o‘tkazishning asosiy qoidasi**

So‘zlayotgan shaxsning fikrini diqqat bilan eshiting.
Suhbatdoshning qiziqishlarini ham hisobga oling.
Suhbatlashayotganda so‘zlashuv odobiga rioya qiling.
Xar bir jumlani sizni tinglayotganlarga to'liq yetkazishga xarakat qilish

## Mavzu bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumotlar

Zamonaviy logistik texnologiyalarga nisbatan tobora ortib borayotgan qiziqish moddiy oqimlar bilan shug‘ullanuvchi tizimlar va yo‘lovchilarga transport xizmatlari ko‘rsatish hamda servis faoliyatini zamonaviy logistik texnologiyalar asosida tashkil qilish nuqtai nazaridan yondashishning samaradorligi bilan belgilanadi. Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasida logistikaning dolzarbligini, uni yanada rivojlantirish va xalqaro darajalarga integratsiyalashish masalalarining o‘ta muhimligini ta’kidlash zarur.

**O‘zbekiston Respublikasi korxonalari uchun logistikaning dolzarblik belgilari**

1.4-jadval

| Dolzablik belgisi | Belgi tavsifi |
|---|---|
| Mahalliy mahsulotni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining yuqoriligi | Turli xil baholashlarga ko‘ra, ular jahon darajasidan 2-8 marotaba yuqori, ko‘pgina holatlarda ishlab chiqarish texnologiyalari zamon talablariga mos kelmaydi |
| Xizmatlar sohasining ishlab chiqarish sohasidan davriy orqada qolishi | • savdo sohasida qo‘l mehnati 70% ga teng;<br>• ortish-tushirish ishlarini mexanizatsiyalashtirish darajasi 20-30% ni tashkil etadi<br>•tashishga buyurtma qabul qilishdan uning bajarilishigacha bo‘lgan muddatning uzoqligi |
| Mahsulot taqsimoti tizimini rivojlantirishning o‘ylab chiqilgan strategiyasi mavjud emasligi, ko‘plab vositachilik tuzilmalarining mavjudligi | • vositachilar, mahsulotning boshlang‘ich narxidan 2-2,5 barobar yuqori transaktsion xarajatlarni keltirib chiqaradi;<br>• markazlashgan taqsimot tizimlarining hududlar bo‘yicha unchalik rivojlanmaganligi |
| •Tashkil etilgan yirik va o‘rta ulgurji savdo bozorlarining yetishmasligi | O‘zbekistondagi ulgurji vositachilar soni 1 ming kishiga 0,05ta korxonani tashkil etadi, taqqoslash uchun AQShda bu ko‘rsatkich 1,9ga, Yaponiyada esa 3,4ga teng |
| Zamonaviy axborot va elektron kommunikatsiya vositalarining past darajada rivojlanishi | Respublikaning chekka hududlarida internet tarmoqlarining pastligi yoki yo‘qligi, yuk xarakatini su’iy yo‘ldoshdan |

| | |
|---|---|
| | kuzatish qurilmalarining kamligi yoki qimmatligi |
| Transport infratuzilmasining qoloqligi | • O‘zbekistonda mahsulot yetkazishning o‘rtacha sutkalik tezligi 5-6 marta past, terminallar orqali yetkaziladigan mahsulot ulushi esa 5-10 marta kamdir;<br>• magistral avtopoezdning o‘rtacha yuk ko‘tarish qobiliyati O‘zbekistonda 15 t.ga teng, AQSh, Frantsiya, Shvetsiyada bu ko‘rsatkich 25-30t.ni tashkil etadi |
| Transport harakat vositalari va infratuzilma ob’ektlarining yuqori darajada eskirishi | •avtomobil yo‘llarining 1/3 dan ko‘prog‘i zamonaviy talablarga javob bermaydi;<br>• xalqaro yuk tashishda band bo‘lgan avtotransport vositalarining 90 foizdan ortig‘i yevropa ekologik standartlariga javob bermaydi<br>• omborxonalar 1/4 qismining maydoni 500 $m^2$ dan kam;<br>•12 foiz omborxonalarga umumiy omborxonalar maydonining 2/3 qismi to‘g‘ri keladi; |
| Omborxona xo‘jaligi ishlab chiqarish–texnik bazasi rivojlanish darajasining pastligi | omborxonalar ¼ qismining maydoni 500 $m^2$ dan kam;<br>• 12 • foiz omborxonalarga umumiy omborxonalar maydonining 2/3 qismi to‘g‘ri keladi;<br>• omborxona xo‘jaligi asosiy fondlarining 30 foizga yaqini jismoniy va ma’naviy eskirgan |
| Zamonaviy qadoqlar turlarini ishlab chiqarish sanoatining yaxshi rivojlanmaganligi | Qadoqlash materiallari bilan yetarlicha ta’minlanmaganligi va uning yomon sifati tufayli, har yili meva va sabzavotlarning 40 foizigacha yo‘qotiladi |
| Logistik texnologiyalar bo‘yicha xalqaro darajalarda faoliyat yurituvchi yuqori malakali kadrlarning kamligi | ta’lim sifatining jaxon talablaridan pastligi, Respublikaning chekka hududlaridagi mutaxassislarning xorijiy tillarda muloqot qilishining yetarli darajada rivojlanmaganligi |

## “Insert usuli”

**Insert -** samarali o‘qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o‘qib-o‘rganishda yordam beradi. Bunda ma’ruza mavzulari, kitob va boshqa materiallar oldindan talabaga vazifa qilib beriladi. Uni o‘qib chiqib, "V; +; -; ?"belgilari orqali o‘z fikrini ifodalaydi.

## Matnni belgilash tizimi

(v) - men bilgan narsani tasdiqlaydi.

(+) - yangi ma’lumot.

(-) - men bilgan narsaga zid.

(?) - meni o‘ylantirdi. Bu borada menga qo‘shimcha ma’lumot zarur.

**Insert jadvali**

1.5-jadval

| **Tushunchalar** | **V** | **+** | **-** | **?** |
|---|---|---|---|---|
| Xalqaro darajalarga integratsiyalsh masalalari | | | | |
| Raqamli iqtisodiyot | | | | |
| Raqamli iqtisodiyot belgilari va ko‘nikmalari | | | | |
| An’anviy va zamonaviy yetkazib berish | | | | |
| Integratsiyalshuvchi yetkazib berish | | | | |
| Zamonaviy etkazib berish | | | | |

## 2-Amaliy mashg‘ulot.

**Mavzu:** Transport tizimini rivojlanishda lagistik texnalogiyalarining ro‘li

**Ishdan maqsad:** Tizim tushunchasi, turlari va tavsifi, transport tizimi bilan tanishish.

### Mavzu bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumotlar

Xorijiy mamlakatlarda JIT(just in taim – aniq o‘z muddatida), TQM (Total Quality Manaqement – sifatni kompleks boshqarish) kabi jismoniy taqsimlashning integrallashgan usuli tizimlaridan foydalaniladi. Integrallashtirish yondashuvi asosida ISCLS tizimi, ya’ni logistik tizim, uning zvenolari, makro va mikro darajalarda xizmat ko‘rsatuvchi tizim yaratildi. U material va axborot oqimlarining telekommunikatsiya tarmog‘ini onlayn rejimi yordamida logistik tizim doirasida boshqarishga imkon beradi. Bu albatta transport tizimining uzluksiz ish faoliyatini ta’minlashga zamin yaratadi. Chunki logistik tizim zanjirining asosiy bo‘g‘ini sifatida “ishlab-chiqarish-transport-taqsimot” ni ko‘rish mumkin.

RBR texnologiyasi buyurtmani yangilash nuqtasi — reorder point (ROP) kontseptsiyasi va mahsulotga bo‘lgan talabning (iste’molning) statistik parametrlariga asoslangan zahiralarni nazorat qilish va boshqarishning eng qadimgi usullaridan biriga asoslangan. Ushbu texnologiya talabning o‘zgarishini rejalashtirish maqsadida kafolatli zahiralarni aniqlash va optimallashtirish uchun ishlatiladi.

Vertual logistika texnologiyasi–barcha elementlar zamonaviy axborot va telekommunikatsiya texnologiyalari yordamida yaratilgan yagona axborot maydonida samarali va maqbul ishlash uchun birlashtirilgan tizim. Logistika tizimining bu vertual versiyasi pirovard natijada mijoz buyurtmasining maksimal sifati va tez amalga oshirilishini ta’minlaydi, ya’ni vertual logistika tizimining barcha ishtirokchilari uchun boshqa biznes tizimlariga nisbatan raqobat afzalligi bo‘ladi.

Talabga yo‘naltirilgan logistika DDT — Demand-driven Techniques / Logistics. Ushbu texnologiya kompaniyaning taqsimot tizimining iste’molchi talabining o‘zgarishiga javobini yaxshilash maqsadida RP («planirovanie potrebnostey»)kontseptsiyasining modifikatsiyasi sifatida ishlabchiqilgan. Kontseptsiyaning quyidagi to‘rtta varianti keng tarqalgan hisoblanadi: rules based reorder (RBR), quick response ( QR), continuous replenishment (CR) i automatic replenishment (AR). Vertual logistika texnologiyasi – barcha elementlar zamonaviy axborot va telekommunikatsiya texnologiyalari yordamida yaratilgan yagona axborot

maydonida samarali va maqbul ishlash uchun birlashtirilgan tizim. Logistika tizimining bu vertual versiyasi pirovard natijada mijoz buyurtmasining maksimal sifati va tez amalga oshirilishini ta'minlaydi, ya'ni vertual logistika tizimining barcha ishtirokchilari uchun boshqa biznes tizimlariga nisbatan raqobat afzalligi bo'ladi.

**"BBB" usullari**

2.1-jadval

| BILAMAN | BILISHNI XOHLAYMAN | BILIB OLDIM |
|---|---|---|
| | | |
| XULOSA | | |
| | | |

**"Insert usuli"**

**Insert -** samarali o'qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o'qib-o'rganishda yordam beradi. Bunda ma'ruza mavzulari, kitob va boshqa materiallar oldindan talabaga vazifa qilib beriladi. Uni o'qib chiqib, "V; +; -; ?"belgilari orqali o'z fikrini ifodalaydi.

**Matnni belgilash tizimi**

(v) - men bilgan narsani tasdiqlaydi.
(+) - yangi ma'lumot.
(-) - men bilgan narsaga zid.
(?) - meni o'ylantirdi. Bu borada menga qo'shimcha ma'lumot zarur.

**Insert jadvali**

2.2-jadval

| Tushunchalar | V | + | - | ? |
|---|---|---|---|---|
| Tizim tushunchasi, turlari va tavsifi | | | | |
| Real vaqtli logistika texnologiyasi | | | | |
| Logistika zamonaviy shaklda axborot texnologiyalari | | | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Vertual logistika texnologiyasi | | | | |
| Elektron savdo maydoni (ESM) | | | | |

**1-masala:** Yuk avtomobili orqa tomonga qisman yukli mayatnik marshrutda ishlaydi. Yuk tashish masofasi to'g'ri yo'nalishda 18 km, orqa yo'nalishda 12 km. Texnik tezlik 30 km/soat. Bir qatnovda ortish-tushirish vaqti to'g'ri yo'nalishda 24 min., orqa yo'nalishda 30 min.

Avtomobilning bir aylanish uchun masofadan foydalanish koeffitsienti va aylanish vaqti aniqlansin.

Yechish:

Masofadan foydalanish koeffitsienti

$\beta = (l_{yuq1} + l_{yuq2})/2 \cdot l_{yuq1} = (18+12)/2 \cdot 18 = 0{,}83$

Avtomobilning aylanish vaqti

$tayl = 2 \cdot ly_{uq1}/vt + \sum t_o\text{-}t = 2 \cdot 18/30 + (24+30)/60 = 2{,}1$ soat

## Nazorat savollari

1. Transport xizmatlarini sotish uchun ESMini yaratish va yuksalish vositalari.
2. Intrnet lagistika xizmatlarini tushuntirib bering.
3. Qo'shilgan qiymatli logistika texnalogiyasi izohlang
4. Logistika zamonaviy shaklda axborot texnologiyalari nima?

## 3-Amaliy mashg‘ulot.

**Mavzu:** Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida zamonaviy logistik texnologiyalarning zaruriy shartlari

**Ishdan maqsad:** Logistika tarixida barcha logistik texnologiyalar, metodalr ularning samarali tushunchalarini o‘rganish.

### Mavzu bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumotlar

Logistik texnologiyalar o‘zining tejamkorligi va kam xarajatligi bilan ahamiyatga ega va bu iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida yanada dolzarblik kasb etadi. Chunki iqtisodiyotda resurslarning cheklanganlik sharoitida ishlab chiqarish samaradorligiga erishish har qanday korxonaning raqobatbardoshlikda o‘ta barqaror bo‘lishi hamda bozorda o‘z o‘rnini yo‘qotmasligiga aynan shunday texnologiyalardan samarali foydalanishi sabab bo‘ladi.

Logistika tarixidagi barcha logistik texnologiyalar va metodlar o‘zining samarasini ko‘rsatgan va bu albatta uni qo‘llayotgan korxonalarning ishlash tamoyillariga ham bog‘liq bo‘lgan.

1980-yillar oxiridan boshlab ko‘pgina G‘arbiy ishlab chiqarish firmalarida Lean production logistika texnologiyasi keng tarqaldi va u tom ma’noda “tejamkor” (berejlivoe) ishlab chiqarish sifatida tarjima qilinishi mumkin.

Bunday texnologiyaning g‘oyasi aslida JIT yondashuvining rivojlanishi bo‘lib, KANBAN i MRP II tizimi kabi elementlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu logistik texnologiyalarning mohiyati quyidagi asosiy komponentlarning ijodiy birlashishidadir:

- yuqori sifat;
- ishlab chiqarish partiyalarining kichik o‘lchamdaligi;
- zaxira darajasining kamligi;
- yuqori malakali kadrlar;
- moslashuvchan uskunalar

Tejamkor ishlab chiqarish - bu Toyota kompaniyasi ishlab chiqarish tizimini g‘oyasining interpretatsiya(metodoliya)sidir. Amaliyot shuni ko‘rsatadaki, buyurtma bajarilish vaqtining 95% i bu kutishga sarflanadigan vaqtdar iborat ekan.

Tejamkor ishlab chiqarishning asosiy g‘oyasi – bu barcha samarasiz vaqtni aniqlash va uni minimallashtirish, chunki ishlab chiqarishdagi sekinlashgan jarayonlar bular yo‘l qo‘yib bo‘lmaydigan juda qimmat jarayonlarhisoblanadi va muvaffaqiyatga erishish uchun ulardan asta-sekinlik bilan qutulish lozim bo‘ladi.

Insorsing loyihasini ishlab chiqish

Kompaniyaning insorsing loyihasini ishlab chiqishda;

- iqtisodiy modelni ishlab chiqish;
- insorser-kompaniya faoliyatining xuquqiy aspektlarini aniqlashtirish;
- mos keladigan yuridik shaxsni roʻyxatdan oʻtkazish, shuningdek barcha ruxsatnomalarni olish;
- xizmatlar katalogini, tariflash sxemasi va tarif tizimini ishlab chiqish;
- servis darajasi(SLA)da shartnoma va kelishuvlar namunasini tayyorlash;
- inventarizatsiyalashni oʻtkazish va insorserga AT-aktivlarni oʻtkazish;
- insorserning tashkiliy-shtat tarkibini rejalashtirish va xodimlarni oʻtkazishni amalga oshirish;
- buyurtmachi(lar)ga xizmat koʻrsatishni tashkil qilish;

-loyiha byudjetini va insorserning yillik byudjetini rejalashtirish;

- buyurtmachi va insorser oʻrtasida shartnoma tuzish;
- xizmat koʻrsatuvchi tashqi provayderlar bilan shartnomani qayta tuzish.

Insorsingga misollar

- ma'lum turdagi tovarni sotish yoki boshqa tovarni siljitish davomida mijozlardan olingan ma'lumotlar bazasidan foydalanish;
- boshqa faoliyat turi uchun yoki aniq bir faoliyat turi uchun oldindan koʻzlangan "nou-xau"lardan yoki noyob kadrlardan foydalanish.

Insorsing qarorlarini koʻrib chiqish uchun zarur boʻladigan ma'lumotlar oʻz ichiga;

- faoliyat turi qiymati va uning amaliy quvvati, xarajatlar drayveri standart stavkasi oʻlchami;
- yuklanish darajasi, amaldagi quvvat xaqida ma'lumot;
- boʻsh turgan quvvatlarni sotish muqobillari va ularning iqtisodiy parametrlari xaqida ma'lumotlar.

**Klaster**



## Nazorat savollari

1. Logistika tarixidagi barcha logistik texnologiyalar, metodlar o‘larning samarasi?
2. Ishlab chiqarish siklini qisqartirish metodlari qanday?
3. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida autsorsing va insorsing usullari ?
4. Insorsing – kompaniyaning tarkibiy bo‘linmalari ?

## 4-amaliy mashg‘ulot

**Mavzu:** O‘zbekiston Respublikasi transport tizimining asosiy xususiyatlar

**Ishdan maqsad:** O‘zbekiston transport eng muhim strategik vazifalarini o‘rganish

## Blits-so‘rov savollari

1. Samarali transport sektori mina?
2.Transport tushunchasini izohlab bering.
3.Mamlakat transport sohasining asosiy xususiyatlarini nimadan iborat?
4.Transport infratuzilmasi haqida tushuncha bering.
5.Transport va logistika tizimining vazifalari va axmiyatini tushuntirib bering.
6. “Aniq va vaqtida” tamoyili haqida tushuncha bering.

**4.1-ilova**

**Suhbat o‘tkazishning asosiy qoidasi**

So‘zlayotgan shaxsning fikrini diqqat bilan eshiting.
Suhbatdoshning qiziqishlarini ham hisobga oling.
Suhbatlashayotganda so'zlashuv odobiga rioya qiling.
Xar bir jumlani sizni tinglayotganlarga to‘liq yetkazishga xarakat qilish

Samarali transport sektori iqtisodiy taraqqiyotning eng muhim tarkibiy qismidir. O‘zbekiston transport siyosatining eng muhim strategik vazifasi qulay transport tizimini barpo etishdan iborat. Bunday transport tizimi transport xizmatlariga bo‘lgan narxlarning nisbatan kamaytirilishini,

xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar uchun transport xizmatlarining tezkorligi, ishonchliligi va qulayligini, transport yo‘nalishlarining diversifikatsiya qilinishini ta’minlashi hamda transqit’a va mintaqaviy logistika sxemalarida bog‘lovchi bo‘g‘inga aylanishi zarur.

Transport tizimi – tashish jarayonida bir-biriga bog‘liq bo‘lgan barcha turdagi transportlar kompleksidir Transport tizimining muhimligi iqtisodiy rivojlanish uchun maqsadli dasturni amalga oshirishni, har xil transport turlarini rivojlantirishga qaratilgan kompleks maqsadli dasturni amalga oshirishni taqozo etadi. Ushbu maqsadli dastur transport tizimini rivojlantirish uchun oldiga quyidagi tasvirlangan mavjud muammolarni o‘z oldiga qo‘yadi:

-transport infratuzilmasini ekspluatatsiya qilish va rivojlantirish;

-yo‘lovchi va yuk transporti xizmatlarini takomillashtirish;

-xalq xo‘jaligini yuktashishga bo‘lgan talabiniqondirish;

-xalqaro transport aloqalari va Transport yo‘laklaridagi mavjud muammolarni bartaraf etish;

-transport infratuzilmasida harakat xavfsizligini ta’minlash va ekologik muammolar..

**“BBB” usullari**

4.1 – jadval

| BILAMAN | BILISHNI XOHLAYMAN | BILIB OLDIM |
|---|---|---|
| | | |
| **XULOSA** | | |
| | | |

## 4-Amaliy mashg‘ulot. 2-qism

**Mavzu:** Transport- logistik tizimlarini tuzish va boshqarish

**Ishdan maqsad:** Transport- logistik tizimlarini tuzish va boshqarishni o‘rganish.

### Mavzu bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumotlar

Makrologistik tizim – bu turli mamlakatlarda, mamlakatning har xil mintaqalarida joylashgan savdo, transport, sanoat, vositaviy korxonalarini qamrab oluvchi materiallar oqimini boshqaruvchi yirik tizimdir.

Makrologistik tizim mamlakat, yoki mamlakatlar guruhining aniq iqtisodiy infrastrukturasini o‘zida aks ettiradi.

Makrologistik tizim quyidagi ko‘rsatkichlarga qarab tavsiflanadi:

1. Mamlakatning ma’muriy – hududiy bo‘linish belgisiga ko‘ra:
- tuman, tumanlararo, shaxar, viloyat va o‘lka;
- mintaqaviy, mintaqalararo, respublika va respublikalararo;
2. Funktsional – ob’ekti belgisiga ko‘ra;
- Korxona, soxa, korxonalar o‘rtasida, sohalararo, harbiy, instuttsional va x.k
- Mikrologistik tizim makrologistik tizimning tarkibiy qismlari, tizimchalari hisoblanadi. Unga har xil ishlab chiqarish, savdo korxonalari, hududiy ishlab chiqarish majmualari kiradi.
- Mikrologistik tizim ichki (ishlab chiqarish ichidagi) tashqi va integratsiyalashgan turlarga bo‘linadi.

Transport-logistik tizimlarni tuzish va boshqarish

Transport logistikasi sohasidagi mutaxassislarning fikriga ko‘ra “transport-logistik tizim” tushunchasi “transport tizimi” tushunchasidan farq qiladi. Transport logistik tizim iste’molchilarning xizmatlarga bo‘lgan talablarini to‘liq va yuqori sifat bilan qondirishga mo‘ljallangan.

**4.2 - jadval**




## Nazorat uchun savollar

1. Transport logistik tizimlar
2. Logistik tizimlarning makro,mikro, mezzo logistik tizimlari.
3. Zamonaviy transport-logistik xizmatlarinign tashkil etishning xalqaro darajadagi vazifalari
4. Logistik tizim faoliyatida tashqi muhit ta'siri
5. Transport -logistik tizimning muhim elementlari

## 5-Amaliy mashg‘ulot

**Mavzu:** Tashish jarayonini ta’minlashning yuk -transport texnalogiylari

**Ishdan maqsad:** Zamonaviy sharoitda optimal nazoratni amalga oshirish

### Blits-so‘rov savollari

1. Yuk oqimlari tushunchasi.
2. Mashrutlarni tanlash nima?
3. Uchastkali mashrutlar qanday aniqlanadi?
4.Magistral aloqa nima.

Mavzu bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumotlar Yuk oqimlari doim mavjud bo‘lganda transport vositalari harakatlarini oldindan ishlab chiqilgan marshrutlar bo‘yicha tashkil qilish imkonini beradi. Marshrut bu – transport vositasining yuk hosil qiluvchi va uni iste’mol qiluvchi punktlar orasidagi trassa bo‘ylab harakatlanish yo‘lidir. Tashish boshlangan punktdan tugagan punktigacha bo‘lgan masofa marshrutlarning uzunligi deyiladi.

Marshrutlarni tanlash va tuzish quyidagi talablarga javob berishi kerak: transport vositasi yuradigan yo‘ldan butun marshrut davomida unumli foydalanish: marshrutdagi transport vositasining yuk ko‘tarish qobiliyatidan to‘la foydalanish; transport marshrutni bir marta to‘la aylanib chiqishi haydovchining bir ish smenasi davomiyligidan katta bo‘lmasligi; harakatlanishni iloji boricha eng qisqa masofalar bo‘ylab bajarish; tashishlarni dispetcherlik usullari bilan tartibga solish va nazorat etish imkoni bo‘lishi; salt yurish yo‘llari maksimal bo‘lishi; bir xil yuklarni qarama-qarshi yo‘nalishlarda tashishgi yo‘qotish; iloji boricha kam transport vositalari bilan tashish; harakat xavfsizligi qoidalariga rioya qilish.

Uchastkali marshrutlar shaharlararo va xalqaro tashishlarda qo‘llaniladi. Bunda transport vositalari o‘ziga ajratilgan uchastkada xarakterlanadi. Bunday iste’moli katta masofalarga ko‘p yuklarni doimiy tashish sharoitlarida qo‘llash maqsadga muvofiq. Avtotranpsort korxonalariga marshrutning muayyan uchastkalari biriktiriьb qo‘yiladi, yuklar yarim tirkamali mingashma avtopoezdlar bilan tashiladi. Yuk ortilgan yarimtirkamalar uchastkadan-uchastkaga uzatib yuboriladi. 1-rasmda uchastkalardan iborat AD marshruti ko‘rsatilgan. Marshrutning B.G punktlari ATK larining filiallari joylashgan, ular ABV va VGD uchastkalarga yuk tashiydi.




3-rasm. Uchastkalardan iborat marshrut sxemasi

Transport vositalarining marshrutda ishlash rejimi harakatlarining tashkil etilishiga, ularga va haydovchilarga xizmat ko‘rsatish usullariga, texnik xizmat ko‘rsatish talablariga bog‘liq. Shaharlararo yuklar tashish amaliyotida transport vositalari ishini tashkil qilishning ikkita sistemasi qo‘llanadi:

- har bir transport vositasi yukni jo‘natish, punktidan iste’mol punktigacha o‘zi eltib beradi (masofadan qat’i nazar);
- har bir transport vositasi marshrutning bir uchastkasida yarim tirkamani tortib, uchastka oxirida yarimtirkamani keyingi uchastkadagi transport vositasiga uzatib yuboradi. Yarimtirkamalarni shatakchidan shatakchiga uzatish maxsus punktlarda, yuk oqimi katta bo‘lsa – avtostantsiyala amalga oshirilad

1-guruh. uchun
SWOT tahlil

| **Uchastkali mashrutlar** | |
|---|---|
| **Afzalliklari** | **Kamchiliklari** |
| **Imkoniyatlar** | **Tahdid** |

**2-guruh uchun**
**SWOT tahlil**

| **Avtopilot** | |
|---|---|
| **Afzalliklari** | **Kamchiliklari** |
| **Imkoniyatlar** | **Tahdid** |

1-masala: 15 km masofali oddiy mayatnik marshrutda bir kunda 110 t yukni tashish uchun yuk ko'tarish qobiliyati 5,5 t bo'lgan Yuk avtomobillaridan nechta kerak bo'lishi aniqlansin. Bunda avtomobillarning ish vaqti 12 soat, texnik harakat tezligi 20 km/soat, ortish-tushirish vaqti 30 min., yuk ko'tarish qobiliyatidan foydalanish koeffitsienti 0,8.

$$A_e = \frac{Q_k}{Q_{k1avt}} = \frac{110}{26,4} \approx 4avt$$

$$Q_{k1avt} = \frac{T_m \cdot q_n \cdot \gamma_{st} \cdot \beta \cdot V_t}{l_{yuq} + \beta \cdot V_t \cdot t_{O-t}};$$

$$Q_{k1avt} = \frac{12 \cdot 5,5 \cdot 0,8 \cdot 0,5 \cdot 20}{15 + 0,5 \cdot 20 \cdot 0,5} = 26,4t$$

## 6-Amaliy mashg'ulot.

**Mavzu:** Global logistik tizim modellari

**Ishdan maqsad;** Transport -logistik servisining zamonaviy amalyoti bilan tanishish.

Mavzu bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar Biznesning globallashuvi va alohida mamlakatlarning transport tizimlarining jahon transport tizimiga integrallanishi ular orqali asosiy tranzit yuk oqimlari o'tadigan xalqaro transport yo'laklarining(XTY) intensiv rivojlanishini talab qiladi. Hozirgi kunda xalqaro transport yo'laklari faqatgina transmilliy korporatsiyalar va kompaniyalarning global logistik strategiyalarini amalga oshirish mexanizmi bo'lib qolmasdan, balki yuklarni yetkazib berishning zamonaviy logistik texnologiyalarini (intermodal, multimodal, terminalli, JIT, «eshikdan-eshikkacha» va boshqalar) joriy qilish uchun sinov maydoni vazifasini ham o'tamoqda.

Xalqaro transport yo'laklari deganda milliy yoki xalqaro transport tizimining alohida geografik rayonlar o'rtasida xalqaro yuk va yo'lovchilarni tashishning katta qismini ta'minlaydigan, berilgan yo'nalishda ishlaydigan harakatlanuvchi tarkib va transportning barcha turdagi statsionar qurilmalarini o'z ichiga oladigan qismi, shuningdek bu tashishlrni amalga oshirishning teznologik, tashkiliy va huquqiy shartlarining jamlanmasi tushuniladi. Xalqaro transport yo'laklarini yaratish o'z oldiga yagona texnik parametrlarga ega bo'lgan va tashishlarning global logistik tizimlarni yaratish va milliy transport tizimlarini jahon transport tizimiga integratsiyalashning asosi sifatida yagona tashish texnologiyasining qo'llanilishini ta'minlaydigan xalqaro transport infratuzilmasini yaratishni maqsad qilib qo'yadi.

O‘zbekiston Respublikasi tomonidan foydalaniladigan asosiy transport yo‘laklari

6.1 - jadval

| Mo‘ljallangan punkt | Tranzit qiladigan mamlakatlar | Masofa, 8km |
|---|---|---|
| Rossiyaning Uzoq Shrqdagi portlari | Qozog‘iston | 8 610 |
| Xitoyning Shimoliy-sharqiy rayonlari, Janubiy Koreya | Qozog‘iston, Rossiya | 7 160 |
| Xitoyning markaziy va g‘arbiy rayonlari, Xitoyning sharqidagi portlar | Qozog‘iston | 6 402 |
| Boltiqbo‘yi davlatlari | Qozog‘iston, Rossiya | 3 849 |
| Turkiyadagi Mersin porti | Turkmaniston, Eron, Turkiya | 3 800 |
| Ukraina va Belarus, Sharqiy Yevropa mamlakatlari | Qozog‘iston, Rossiya | 2 978 |
| Ilichevsk porti , Ukraina | Qozog‘iston, Rossiya | 2 964 |
| Eron portlariga transafg‘on yo‘lagi Afg‘oniston | Afg‘oniston | 2 176 |
| Boku–Axalkalaki–Kars temir yo‘li orqali Turkiya va Yevropa mamlakatlari | Turkmaniston, Ozarbayjon, Gruziya, Turkiya | 2 158 |
| Erondagi Bandar-Abbos porti orqali Janubiy-sharqiy Osiyo, Fors ko‘rfazi va Hindiston | Turkmaniston, Eron | 2 109 |
| Poti va Batumi portlariga transport yo‘lagi | Turkmaniston, Ozarbayjon, Turkiya | 2 025 |
| Andijon-O‘sh-Qashqar temir yo‘li orqali G‘arbiy Xitoy | Qirg‘iziston | 439 |

Hozirgi kunda O‘zbekistonning tashqi savdo yuklari quyidagi asosiy transport yo‘laklari bo‘ylab tashilmoqda:

1-yo‘lak – Boltiqbo‘yi davlatlarining portlari yo‘nalishida (Qozog‘iston va Rossiya orqali tranzit qilish bilan) – Klaypeda (Litva),

Riga, Liepaya, Ventspils (Latviya), Tallin (Estoniya);

2-yo‘lak – Belarus va Ukraina orqali YeI mamlakatlari yo‘nalishida (Qozog‘iston va Rossiya orqali tranzit qilish bilan) – Chop (Ukraina) va Brestda (Belarus) chegarani kesib o‘tish bilan;

•3-yo‘lak – Ukrainadagi Ilichevsk portiga (Qozog‘iston va Rossiya orqali tranzit qilish bilan), Qora dengizga chiqish bilan;

•4-yo‘lak – Qozog‘iston-Xitoy chegarasidan (Dostik/Alalshankou) o‘tish bilan sharqiy yo‘nalishda Xitoyning sharqidagi portlargacha, shuningdek Uzoq Sharqdagi Naxodka, Vladivostok portlari va boshqa portlargacha;

•5-yo‘lak – TRASEKA yo‘lagi sifatida ma’lum bo‘lgan Transkavkaz yo‘lagi yo‘nalishida (Turkmaniston, Qozog‘iston va Ozarbayjon orqali tranzit qilish bilan), Qora dengizga chiqish bilan;

•6-yo‘lak – Transkavkaz yo‘lagi yo‘nalishida (Qozog‘iston va Ozarbayjon orqali tranzit qilish bilan), Qora dengizga chiqish bilan;

•7-yo‘lak – Erondagi Bandar-Abbos portiga (Turkmaniston orqali tranzit qilish bilan), Fors ko‘rfaziga chiqish bilan;

•8-yo‘lak – Erondagi Bandar-Abbos portiga (Qozog‘iston orqali tranzit qilish bilan), Fors ko‘rfaziga chiqish bilan;

•9-yo‘lak – Xitoy portlariga (Qirg‘iziston orqali tranzit qilish bilan), Sariq, Sharqiy-Xitoy va Janubiy-Xitoy dengizlariga chiqish bilan.

•10- yo‘lak – Afg‘on muammosi tartibga solinishi munosabati bilan Afg‘oniston orqali Bandar-Abbos va Chaxbaxar (Eron Islom Respublikasi), Gvadar va Karachi (Pokiston Islom Respublikasi) portlariga chiqish uchun janubiy yo‘nalishda alьternativ transport yo‘laklarini ishlab chiqish bo‘yicha yangi istiqbollar ochiladi.

## Nazorat savollari

1. Xalqaro transport yo‘laklari.
2. O‘zbekistonning transport yo‘laklari.
3. Transport -logistika servisning zamonaviy amalyoti .
4. Xalqaro transport yo‘laklarining logistik infrtuzilmasini shakllantirish.
5. Logistik infrtuzilmasini yaratish va tuzish.

## 7-Amaliy mashg‘ulot

**Mavzu:** Transpot xizmatlari, tasniflanishi va turlari

**Ishdan maqsad:** Transpot xizmatlarining republika iqtisodiyotidagi ro‘lini o‘rganish.

### Blis-so‘rov savollari

1. Transport xizmatlari bozori.
2. Xizmatlarning iqtisodiyotdagi o‘rni.
3. Iqtisodiy manfaatlar nima
4. Yuklarni qabul qilish va topshirish.
5. Ortish-tushurish saqlash hizmatlarini tahlil qilish.
6 Bojxona munosabatlari va tartiblari.

**7.1-ilova**

**Suhbat o‘tkazishning asosiy qoidasi**

So‘zlayotgan shaxsning fikrini diqqat bilan eshiting.
Suhbatdoshning qiziqishlarini ham hisobga oling.
Suhbatlashayotganda so‘zlashuv odobiga rioya qiling.
Xar bir jumlani sizni tinglayotganlarga to‘liq yetkazishga xarakat qilish

### Mavzu bo‘yicha qo‘chimcha malumotlar

Respublikada transport xizmatlari bozorining tarkibini asosan avtomobil, temir yo‘l, xavo transporti tashkil qiladi. Xar bir transport turining o‘ziga xos xususiyatlari bor. Transport xizmatlari sifati tushunchasi ham ushbu xususiyatlardan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Transport xizmatlarining respublika iqtisodiyotidagi roli katta. Chunki xar qanday ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish sohasining faoliti transport bilan bog‘liq.

Transport xizmatlarining son va sifat tavsifidan turlicha iqtisodiy manfaatlar yuzaga keladi va ularni quyidagicha tasvirlash mumkin.

Transport xizmati bu korxonalar va odamlar ehtiyojini qondirishga qaratilgan transport faoliyati turi hisoblanadi. Transport xizmati – nafaqat yuk yoki yo‘lovchilar tashish, balki tashish jarayoniga kirmaydigan, lekin uni tayyorlash va amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan har qanday operatsiyalar kompleksidan iboratdir.

Transport xizmatlari quyidagi belgilariga ko‘ra tasniflanadi:

1. asosiy faoliyatga bog‘liqliga ko‘ra:
 - tashish;
 - tashishga bog‘liq bo‘lmagan.
2. faoliyat tavsifiga ko‘ra:

- texnologik;
- tijorat;
- axborot.

3. narx oʻlchamiga koʻra:

- yuqori narxda;
- oʻrtacha narxda;
- past narxda.

Transport xizmati tarkibiga kiruvchi yetkazib berish jarayoni quyidagi operatsiyalarni oʻz ichiga oladi:

1)yuk va yoʻlovchilar tashish;
2)yuk ortish-tushirish ishlarini bajarish;
3) yoʻlovchilarni transport vositalariga chiqarish-tushirish;
4) omborxona ichidagi operatsiyalarni bajarish;
5)yuklarni omborxonada saqlash;
6)yuklarni tashishga tayyorlash, ularni qadoqlash, tamgʻalash;
7)tashish vositalarini tayyorlash;
8)tashish vositalarini ijara yoki boshqa shartlarda foydalanishga berish;
9)transport vositalari parkining ishga yaroqli texnik holatini ta’minlash, ularga texnik qarov, joriy va kapital ta’mirlash xizmatlarini koʻratish;
10)yangi yoki ta’mirlangan transport vositalarini yetkazib kelish va shu kabilar.

**7.2-ilova**

**“Insert usuli”**

**Insert -** samarali oʻqish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil oʻqib-oʻrganishda yordam beradi. Bunda ma’ruza mavzulari, kitob va boshqa materiallar oldindan talabaga vazifa qilib beriladi. Uni oʻqib chiqib, "V; +; -; ?" belgilari orqali oʻz fikrini ifodalaydi.

**Matnni belgilash tizimi**

(v) - men bilgan narsani tasdiqlaydi.
(+) - yangi ma’lumot.
(-) - men bilan narsaga zid.
(?) - meni oʻylantirdi. Bu borada menga qoʻshimcha ma’lumot zarur.

### Insert jadvali

7.1 - jadval

| **Tushunchalar** | **V** | **+** | **-** | **?** |
|---|---|---|---|---|
| Buyutmalarini qabul qilish | | | | |
| Iste'molchilar talablarini o'rganish | | | | |
| Yuklarni tashishi va tarmoqlarini o'rganish | | | | |
| Shartnoma tuzish | | | | |
| Tashishga jalb etilayotgan yuk moshinalar | | | | |
| Transport sikli | | | | |

**7.3 - ilova**

### "T-sxema" ni to'ldirish

| **Avtomabil moshinalarda xizmat ko'rsatish .** | |
|---|---|
| **Afzalliklari** | **Kamchiliklari** |
| | |

**1-masala:** Halqasimon marshrutda avtomobilning bir aylanish vaqti 6 soat. O'rtacha yukli qatnov uzunligi 18 km. Bir aylanishda bosib o'tilgan masofadan foydalanish koeffitsienti 0,6. Texnik harakat tezligi 30 km/soat. Bir qatnovda o'rtacha ortish-tushirish vaqti 36 min.
Avtomobilning bir aylanishdagi qatnovlar soni aniqlansin.

$$t_{ayl} = \left(\frac{l_{yuq}}{\beta \cdot V_t} + t_{o-t}\right) \cdot Z_{yuq}$$

$$Z_{yuq} = t_{ayl} / \left(\frac{l_{yuq}}{\beta \cdot V_t} + t_{o-t}\right) = 6/(18/0{,}6 \cdot 30 + 0{,}6) \approx 4 qatnov$$

### Nazorat uchun savollar

1.Transport xizmatlarining respublika iqtisodiyotidagi roli
2.Transport xizmati tarkibiga kiruvchi yetkazib berish jarayoni
3.Transport xizmatlariga bo'lgan talabning zamonaviy holati
4.Transport operatorlari tomonidan amalga oshiriladigan xizmatlar
5.Transport vositalariga ega bo'lgan ekspeditorlar yuk tashish operatsiyalari
6.Aralash tashishning umumiy xususiyatlari

## 8-Amaliy mashg'ulot.

**Mavzu:** Yuk tashishni tashkil etishning muqobil variantlari

**Ishdan maqsad:** Moddiy zahiralarni boshqarish haqida tushunchaga ega bo'lish.

### Blits-so'rov savollari

1. Logistika xarajatlari bilan bog'liq holatlarini izohlab bering.
2. transportning asosiy turlari?
3. Transportning logistik infrtuzilmasini izohlab bering.
4. Harakatlanuvchi tarkib nimalardan iborat?

**8.1-ilova**

**Suhbat o'tkazishning asosiy qoidasi**

So'zlayotgan shaxsning fikrini diqqat bilan eshiting.
Suhbatdoshning qiziqishlarini ham hisobga oling.
Suhbatlashayotganda so'zlashuv odobiga rioya qiling.
Xar bir jumlani sizni tinglayotganlarga to'liq yetkazishga xarakat qilish

### Mavzu bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar

Mamlakatimizda yuklarni tashishning zamonaviy tushunchasi bozor munosabatlarini iqtisodiyotning sanoat tarmoqlariga tenglashtirilgan tarmoqdan xizmat ko'rsatish sohasi – transport-logistika servisigacha rivojlanishi bilan sezilarli darajada o'zgargan. Bunda zamonaviy tashish amaliyotini logistik servis nuqtai-nazardan qisqacha quyidagicha ifodalash mumkin: «talab qilingan sifat va miqdordagi kerakli tovar belgilangan vaqtda va optimal xarajatlar bilan». Shu sababli transport xizmatining iste'molchilari transport turlari va tashishning shunday usullarini tanlaydilarki, ular logistik servisning eng yaxshi sifatini ta'minlasin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida transport korxonalarining faoliyat yuritishini xarakterli chizgilari transport xizmatlari bozorining shakllanishi, korxonalar va transportning har xil turlari o'rtasida raqobitning kuchayishi, iste'molchilar tomonidan transport xizmatlarining tariflari va sifatiga qo'yiladigan talablarning ortishi kabi ob'ektiv holatlar bo'lib hisoblanadi.

Mamlakatimizning aksariyat mintaqalarida transport va terminal-ombor majmualarining holatini tahlil qilish transport-logistika servisining quyidagi o'ziga xos xususiyatlari va muammolarini aniqlash imkonini beradi:

- tariflarning yuqori darajasi, xorijiy tashuvchilar va ekspeditorlar bilan raqobatning kuchayishi;
- transport majmuasining faoliyat yuritishda marketing strategiyalarining yo‘qligi;
- logistik servisning jahon standartlariga javob bera olmaydigan past sifati;
- ishlab chiqarish-texnika bazasi, transport servisining infratuzilmasi, tashishlarni amalga oshirishda logistika jarayonini qo‘llab-quvvatlaydigan axborot tizimlari rivojlanishining past darajasi;
- yagona innovatsion va investitsion siyosatning yo‘qligi;
- amaldagi hujjat aylanmasi va yuklarni bojxona rasmiylashtirishi jarayonlarining murakkabligi va mukammal emasligi;
- tashish jarayonining ishtirokchilari, terminallar, omborlar, bojxona, boshqa korxonalar va bu korxonalarning xizmatlaridan foydalanadigan iste’molchilar o‘rtasida o‘zaro harakatlar va axborot bog‘lanishlarning past darajasi;
- sheriklarning transport-logistik servis bo‘yicha manfaatlarining sezilarli farq qilishi;
- yagona me’yoriy-huquqiy baza, transport logistikasi sohasida zamonaviy me’yorlarning yo‘qligi;
- transport-ekspeditsiyalash faoliyatining zamonaviy logistik texnologiyalarining yetishmasligi.

**8.2-ilova**

**“Insert usuli”**

**Insert -** samarali o‘qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o‘qib-o‘rganishda yordam beradi. Bunda ma’ruza mavzulari, kitob va boshqa materiallar oldindan talabaga vazifa qilib beriladi. Uni o‘qib chiqib, "V; +; -; ?"belgilari orqali o‘z fikrini ifodalaydi.

**Matnni belgilash tizimi**

